

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY – MILLIY MA‘RIFAT VA JADIDCHILIK HARAKATINING BUYUK NAMOYANDASI

Muxammadjonova Mavludaxon

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,

“Dinshunoslik” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Mashxura Qodirova

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

“Arab tili va adabiyoti “al-Azhar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalqining milliy uyg‘onish davrida yashab ijod etgan alloma Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti, ilmiy-ma‘rifiy faoliyati, jadidchilik harakatidagi o‘rni va bugungi kunda uning ilmiy merosining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida Behbudi asarlarining jamiyat taraqqiyoti va ma‘rifatga chaqiriqdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ma‘rifat, islohot, ta’lim, matbuot, milliy uyg‘onish, teatr, Behbudi.

Turli tarixiy-ijtimoiy sabablar tufayli, bir zamonlar jahonning eng qudratli davlatlaridan biri bo‘lgan Turkistonning XIX asr o‘rtalarida mustamlakaga aylanishi va hatto yangi hayot shabadalari esa boshlagan XX asr avvalida ham mustamlakachilik sharoitida yashashi xalqning ilg‘or va taraqqiyparvar farzandlarida or-nomus uchun, haq-huquq uchun, erk va hurriyat uchun kurash istagini uyg‘otdi. Bu istak M. Behbudi singari siymolar tufayli dastlab g‘oyaga, so‘ngra tarixiy zaruratga aylandi. Ammo bu g‘oya va zaruratni amalga oshirish yo‘li bir-biridan kuchli to‘siqlar bilan to‘silgan edi. Bu to‘siqlarning eng dahshatlisi xalq ommasining parokandaligi, ijtimoiy va huquqiy ongining tubanligi edi. Shu sababdan ham M. Behbudi va uning safdoshlari hurriyat uchun kurashning dastlabki va zaruriy bosqichi — xalq va jamiyatni ma‘rifat bilan “qurollantirish” yo‘lini tanladilar. Bu, o‘z vaqtida, “jadidchilik harakati” deb ataldi. Keyinchalik tarixchilar unga “milliy uyg‘onish harakati” degan nom berdilar.¹

Mahmudxo‘ja Behbudiyning o‘z qo‘li bilan yozgan tarjimai holi shu kungacha topilgani yo‘q. Mahmudxo‘ja Behbudi, qizi Parvina (Surayyo)ning bergan ma‘lumoti, Turkiston telegraf agentligining «Izvestiya» gazetasida e‘lon qilgan xabari, «M.F.» imzoli muallifning «Nauka i prosveteniye» jurnalida bosilgan makolasida aytilishicha, 1873-yili tugilgan. Sadridin Ayniy «Muftiy Mahmudxo‘ja Behbudi xazratlarining qisqacha tarjimai holi» maqolasida: «Behbudi 1291 xijriy zulxijja oyining uninda, oqshom (1873 milodiy xamal oyiga mutlak) Samarqandda Behbudxo‘ja xatib talabidan dunyoga kelib», - deb yozadi². Yoshligidan diniy va dunyoviy fanlarga qiziqqan, Buxoroda tahsil olgan. 1899 yilda Haj safariga borib, Istanbul, Qohira kabi shaharlar madaniyatidan ilhom olgan. Ana shu safarlar uning dunyoqarashini o‘zgartirib, islohot g‘oyalarini shakllantirdi.

Behbudi yangi usuldagi maktablarni ochish, zamonaviy darsliklar yaratish ishini

¹ Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudi. Toshkent – 2010.

² “Mehnatkashlar tovushi”. 1920 yil 8 aprel; “Inqilob”. 1922. №1.

boshlab berdi. 1903-yilda “Muntaxabi jug‘rofiyai umumiy” nomli geografiya darsligini, 1908-yilda “Rusiyaning qisqacha jug‘rofiyasi”ni nashr ettirdi. Bu darsliklarda o‘lkashunoslik, geografiya, tarix fanlari sodda va xalq uchun tushunarli tilda yoritilgan.

U 1908-yilda Samarqandda “Behbudiy kutubxonasi”ni tashkil etib, xalqni kitob o‘qishga da’vat etdi. Bu kutubxona o‘sha davrda o‘zbek ziyolilari uchun ilm markaziga aylangan.

Behbudiy o‘z davrida matbuotning xalq ongini uyg‘otishdagi kuchini yaxshi anglagan. 1913-yildan boshlab u “Oyna” jurnalini nashr eta boshladi. Bu jurnal orqali u ta’lim, siyosat, madaniyat, ayollar erkinligi va xalq birligi haqida maqolalar yozdi.

Uning “Maktab va muallim”, “Millatning najoti ilm va ma’rifatda”, “Hurriyat nima?” kabi maqolalari xalqni o‘zligini anglashga da’vat etgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek teatrining poydevorini qo‘ygan ijodkordir. Uning “Padarkush” nomli pyesasi (1913-yil) o‘zbek adabiyotidagi ilk ijtimoiy-ma’rifiy dramatik asar hisoblanadi. Asarda jaholat, g‘aflat va ilmga befarqlik oqibatlari fosh etiladi. Bu asar orqali Behbudiy teatrni xalqni tarbiyalash vositasi sifatida ko‘rgan.

1917-yilgi inqiloblardan so‘ng Behbudiy siyosiy hayotda ham faol qatnashdi. U Turkiston muxtoriyati g‘oyasini qo‘llab-quvvatlab, o‘lka musulmonlarining manfaatlarini himoya qildi. Afsuski, 1919-yilda Qarshi shahrida Buxoro amirligi tarafdorlari tomonidan hibsga olinib, qatl etildi. U o‘z g‘oyasi - “Millat najoti ilmda” shioriga sodiq holda hayotdan o‘tdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zbek xalqining milliy uyg‘onish davridagi eng buyuk ma’rifatparvar allomalardan biridir. U ta’lim, matbuot, teatr va siyosat sohalarida millat uchun xizmat qildi. Uning ilmiy va adabiy merosi bugungi kunda ham yoshlar uchun ibrat manbaidir. Behbudiy o‘z hayoti bilan “ilm – najot manbai” ekanini amalda isbotlagan siymo sifatida tarixda abadiy qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Padarkush. — Samarqand, 1913.
2. “Oyna” jurnali arxiv sonlari. — Samarqand, 1913–1915.
3. Karimov, I. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Abdug‘aniyeva, D. Jadidchilik harakati va o‘zbek matbuoti tarixi. — Toshkent, 2015.
5. Wikipedia. Mahmudxo‘ja Behbudiy.
(https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahmudxo%E2%80%98ja_Behbudiy)
6. Naim Karimov. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Toshkent – 2010.
7. “Mehnatkashlar tovushi”. 1920 yil 8 aprel; “Inqilob”. 1922. №1.